

## **CHEK TILLARINI O'QITISHDA GRAMMATIKANING AHAMIYATI**

*Chirchiq OTQMBYu*

*Tillar kafedrası*

*o'qituvchisi Ibragimova D.A.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2012 yil 10 dekabrda Pq-1875-sonli qarorini bajarish yuzasidan jadallik bilan amalga oshirilayotgan ishlar, barcha ta'lim muassasalari va davlat tashkilotlarining diqqat e'tiborini aynan til o'qitish va o'rganishga qaratdi. Til o'qitishga qaratilgan bunday e'tibor biz, til o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi. Chet tillarini, ayniqsa dunyo tili deb topilgan ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish va rivojlantirishda zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish (masofali ta'lim, multimedia va h.k...), samarali o'qitish usullarini ishlab chiqish, til o'rganuvchilarning bilim saviyalarini oshirish talab etiladi. Til o'qituvchilarining oldiga qo'yilgan talablarni bajarish uchun esa ilmiy yondashuv zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, til o'qitishdagi ko'rinmas ammo yashirin nozik jihatlarga e'tibor qaratishimizga to'g'ri keladi. Til o'qitish jarayonida keng qo'llaniladigan ko'plab turli samarali usullar mavjud. Tilshunoslarning fikricha mukammal o'rganilgan tilning asosi grammatikadir. Til o'rgatishda biz grammatik ma'lumotlarni yopiq (covert) usulidan, ba'zilarida esa ochiq (overt) usulidan foydalangan holda zaruriy grammatik qoidalarni yetkazishga xarakat qilamiz. Bu ikki usul o'rtasidagi farq nimadan.

O'qituvchilar til o'rgatish jarayonida asosan grammatik ma'lumotlar, qoidalarni yopiq (covert) usulda taqdim etishadi. Aniqroq qilib aytganda, o'rganuvchilar interfaol usuldagi topshiriqlarni bajarish, yoki grammatik qoidalar ishtirok etgan matnni o'qishlari orqali amalga oshirishlari mumkin, ammo bu qolatda ular e'tibori grammatikaga emas balki berilgan topshiriqqa yoki matnga qaratiladi. Yopiq (covert) grammatik usul bilan o'qituvchi o'rganuvchiga faqatgina o'rganilayotgan amaliy topshiriqlarni bajarish imkonini yaratadi, lekin tildagi

grammatik qoidalar biroz nazardan chetda qoladi. Ochiq (overt) grammatik usulida esa o'qituvchi e'tiborni grammatik qoidalar va ta'riflarga qaratadi, chunki, ma'lumotlar ham aniq, ham ochiq tarzda taqdim etiladi. Demak, ochiq usuldan foydalanilganda o'rganilayotgan tilning barcha grammatik qoidalari aniq va to'liq yetkaziladi, yopiq usuldan foydalanilganda esa o'rganilayotgan tilda amaliy topshiriqlarni bajarilishiga erishiladi halos. Ammo o'qituvchi o'rganuvchi o'rganayotgan tilni to'liq va to'g'ri o'zlashtirishi uchun grammatik talablarni mukammal o'rganish juda zarur ekanligini anglab etishlariga ularda ishonch hosil qilishga erishadi. [1]

“Grammatika o'qitishda qaysi usul samaraliroq. Umuman grammatikani o'qitish shartmi?!” – degan savollar deyarli barchani qiziqtirishi tabiiy hol. Ayni yillarda tilning grammatik talablariga bo'lgan amaliy e'tibor biroz susaygan. Shu bilan birga yangi yozuv alifbosiga o'tilishi bilan bo'g'liq qiyinchiliklar ham o'z ta'sirini ko'satmoqda. O'qituvchilar e'tibori boshqa masalalarga qaratilgan: o'rganuvchiga tilda gapirishni, so'zlarni yodlash, kundalik qo'llaniladigan ibora va atamalarni o'rgatish orqali qisqa vaqtda ko'zga ko'rinarli darajada so'zlasha oladigan qilish; Bu soxaning asl izlanuvchilarining munozarali baxslari va muhokamalaridan so'ng o'qitishning yangi kommunikativ (communicative approach) usulini ishlab chiqishdi. Bu usuldagi ikki asosiy jihat, tilning funksional (language functions) vazifalarini o'rganish va kommunikativ usullardan foydalanishdir. Ko'pchilik o'rganilayotgan tilni qo'llashda grammatikani o'rganish shart emasdek qarashadi. Bunga ulardagi ma'lum grammatik qoidalarni o'zlashtirgan va biroz bo'lsada suqbatlasha olish, to'liq bo'lmasa ham tushunish malakasiga ega bo'lib qolganliklarida, ammo bu egallangan grammatik qoidalar barcha holatlarda qo'llaniladi degani emas. Har bir grammatik konstruksiya yoki qoidalarning qo'llanilish holatlari mavjud, shuning uchun ham biz tilning funksional vazifasiga asoslangan holda o'rgatishimiz darkor. Zero har bir ish mukammallikni talab etadi. [2]

Hozirgi kunda ommalashgan interfaol usullarni qo'llash orqali qisqa vaqtda til o'rgatuvchi o'quv kurslarida asosan yopiq usuldan foydalaniladi, shu sababdan

ham grammatika to'liq o'rganilmay qolmoqda. Bunday “zamonaviy” kurslarda odatda grammatik konstruksiya kiritiladi va o'rganuvchilar shu konstruksiyaga bog'liq bo'lgan topshiriqlarni bajarishadi. Biroq o'rganilgan bu grammatik konstruksiyaning istesno holatlari borinki, qoidadan tashqari qo'llaniladigan holatlari mavjudligi va qolgan barcha nozik jiqatlaridan bexabar o'rganuvchi tilni mukammal o'rgana olmaydi. Kommunikativ usullarning salbiy jihati shundaki, endigina til o'rganishni boshlaganlar bor bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda ifoda etishga biroz qiynalishlaridadir. Biroq boshqa turdagi usullar ularning erkin gapirishlari yoki yozishlari, o'zlari bilgan tildan foydalanishlariga imkon beradi, bir so'z bilan aytganda, dars davomida ular fikr almashish uchun tildan foydalanishadi, tilni o'rganish uchun mashq bajarishmaydi. Shu bilan birga, aloqida ta'kidlash joizki, kommunikativ usullardan foydalanishning afzalliklari qam juda ko'p:

O'rganuvchilarga doim qiziqarli bo'lib, ma'qul bo'ladi;

O'rganuvchilarga bilimlaridan foydalanishga imkon beradi;

O'rganuvchilarga ham o'qituvchiga ham o'rganilayotgan tilning qay darajada o'zlashtirilayotganligini bilishga imkon beradi;

O'qituvchi-o'rganuvchi o'rtasidagi rasmiy munosabatlarga biroz erkinlik beradi. [3]

Albatta “shu usullardan to'liq foydalanish samaralimi?” – degan savol tuqiladi. Ba'zilar til o'qitishda shunday usullardan to'liq foydalanish zarur deb biladilar. Aksariyat o'qituvchilar esa bu usullardan dars jarayonida qisman foydalanish samaraliroq degan fikrda. Bu o'rinda til o'rganuvchilarning o'zgacha qarashlari mavjud. Ularning fikricha tilni aloqida o'qib-o'rganmasdan ham bilib olish mumkin, albatta bu fikrni butunlay noto'qri deb bo'lmaydi, xatto ko'plab katta yoshdagi o'rganuvchilar ham shunday fikr yuritishadi. Bunday fikr yurituvchilar asosan xorijiy davlatlarga ko'chib ketgan, hech qanday til o'qitish kurslarida o'qimagan, atrof muhitga moslashish qobiliyatlari doirasidagi aynan o'sha usullar orqali ma'lum bir darajaga erisha olganlardir. Bu holatni inobatga oladigan bo'lsak, “til” o'qitishning, o'z navbatida o'qituvchilarning o'rganuvchilarga berayotgan bilimlarining keragi yoqdek. Ammo o'qituvchilarning asosiy qismi yuqorida eslatib

o'tilgan fikr tarafdorlaridan farqli o'laroq, til o'rgatishda interfaol usullardan kengroq foydalanish samarali natija beradi va til o'rganishga bo'lgan e'tiborni ongli ravishda amalga oshirishlariga erishish mumkin deb qisoblaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, til o'rgatishda grammatikani o'qitishning qar ikkala, ochiq va yopiq usullari ham juda muhim va keraklidir. Barcha til o'qituvchilari shuni yaxshi bilishadiki, o'quvchilar turli metod va uslublarga turlicha munosabat bildirishadi. Biz qam albatta qar hil usullarning turli hil maqsadlarda qo'llanilishini yaxshi bilamiz. Bas shunday ekan, meyor qaerdan qay turdagi metod (metodik uslub) ustuvor. Biz boshlanqich bosqichdagilar bilan o'qitishning turli yo'nalishlaridan foydalangan qolda ya'ni:

amaliy mashg'ulotlardan, ammo erkin kommunikativ usuldan biroz chekingan holda;

tinglash va o'qish usullaridan

kengroq foydalanishimiz zarur. Til o'rgatishda grammatikani kiritish bu bosqichda mutlaqo yopiq usulda bo'lishi kerak, sabab asosiy maqsad o'rganuvchilarning imkon qadar o'rganayotgan tillaridan foydalanishlari va amalda qo'llay bilishlaridir. Ular ko'proq bilimga ega bo'lganlari sayin bu meyor o'zgaradi va bu o'rta bosqichda kommunikativ usullardan ko'proq foydalanishga tayyor bo'lishadi. Til o'rgatishda grammatikani kiritish o'rta bosqichda asosan ochiq usulda kechadi, chunki o'quvchilar faollik bilan grammatikani tushuna olish uquvi va malakasiga ega bo'ladilar.[4]

Qanday bosqichda bo'lishlariga qaramay, biz til o'rganish qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda turli usullar bilan ularni maqsadlari tomon yo'naltiramiz. Bu bilan biz ularga tilni mukammal o'rganish nafaqat ongli ravishda, balki amaliy jihatdan ham zarur ekanligini asoslab beramiz, zero asossiz bajarilgan har qanday ish besamar bo'ladi. Bugungi kundagi til o'rganishga bo'lgan talabni inobatga olgan holda biz, til o'qituvchilari o'z fidoiyligimiz, meqnatsevarligimiz va mas'uliyatligimizni namoyon etish fursati etganligini aloqida ta'kidlash zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Establishing Self-Access from Theory to Practice” by David Gardner and Lindsay Miller Cambridge University Press. 1999.
2. “Planning lessons and Courses” by Tessa Woodward Cambridge University Press. 2001.
3. “Teaching and learning grammar” Jeremy Harmer Cambridge, UK. 1986.
4. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar ” Ishmuqamedov R., Abduqodirov R., Pardaev A. Toshkent. 2008.